

“MENING KASBIM - MENING FAXRIM!”

O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilganligining yigirma besh yilligiga bag‘ishlab sport musobaqalaridan ko‘zlangan maqsad, “Mening kasbim - mening faxrim!” shiori ostida bo‘lib o‘tgan musobaqalarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi harbiy xizmatchi va kursantlarining jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik hamda vatanparvarlik, Ona-Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, o‘z kasbiga bo‘lgan faxr tuyg‘ularini shakllantirishdan iborat.

Sport musobaqalarining 6 turi “Ishg‘ol qilish narvonidan o‘quv minorasining 4-qavatiga ko‘tarilish”, “Uch tirsakli suruluvchi narvondan o‘quv minorasining 3-qavatiga ko‘tarilish”, “Stol tennisi”, “Badminton”, “4x100m ga AKM avtomati bilan estafetali yugurish” va “Mini futbol” turlari bo‘yicha Akademiya harbiy xizmatchilari va kursantlari o‘zaro kuch sinashdilar.

Qizg‘in va murosasiz 10 kun davom etgan musobaqa natijalariga ko‘ra “Ishg‘ol qilish narvonidan o‘quv minorasining 4-qavatiga ko‘tarilish” turi bo‘yicha umumiy natijalarga ko‘ra 1-o‘rinni 3 kurs kursantlari egaladi, 2 kurs kursantlari ikkinchi o‘rinni, hamda 3 kurs kursantlar jamoalari esa faxrli uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritishdilar. Ushbu turning shaxsiy natijalariga ko‘ra 5 kurs kursanti Doniyor Yusupov 16.40 soniya natija ko‘rsatib birinchi o‘rinni, 4 kurs kursanti Ilxom Temirov 16.52 soniya natija bilan ikkinchi, hamda 3 kurs kursanti Farrux Xamidov 16.95 soniya natija bilan uchinchi o‘rinni egalladilar. “Uch tirsakli suruluvchi narvondan o‘quv minorasining 3-qavatiga ko‘tarilish” turi bo‘yicha umumiy natijalarga ko‘ra 5 kurs kursantlari 1 o‘rinni, 2 kurs kursantlari ikkinchi o‘rinni va 3 kurs kursantlari uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritishdi.

“Stol tennisi” turi bo‘yicha yakkalik bahslarda 4 kurs kursanti To‘lqin Tursunov birinchi, 4 kurs kursanti Shohjaxon Shodiev ikkinchi, hamda 3 kurs kursanti Sherzod Karimov uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritdilar. “Badminton”, turi bo‘yicha yakkalik bahslarda 4 kurs kursanti Aziz Qudratov birinchi o‘rinni, katta leytenant Elyor Murodov ikkinchi, hamda polkovnik Choriyor Xujanov uchinchi o‘rinni egalladi. Juftlik baxslarida esa polkovnik Choriyor Xujanov, katta leytenant Elyor Murodov jamoasi birinchi, katta leytenant Rustam Choriev, hamda katta leytenant Jasur Yarbekov juftligi ikkinchi o‘rinni, 3 kurs kursantlari G‘olib Boltaev, hamda Baxridin Boxromovlar jamoalari faxrli uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritishdi. “4x100m ga AKM avtomati bilan estafetali yugurish” turi bo‘yicha 4 kurs kursantlari jamoasi 1.29 soniya natija bilan birinchi o‘rinni, 1.37 soniya natija bilan 3 kurs kursantlari jamoasi ikkinchi o‘rinni va 5 kurs kursantlari 1.47 soniya natija bilan uchinchi o‘rinni egalladilar.

“Mini futbol” turlari bo‘yicha Akademiya harbiy xizmatchilari va kursantlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qizg‘in o‘yinlar yakuniga ko‘ra boshqarma 1 jamoasi uchinchi o‘rinni, 3 kurs kursantlari ikkinchi, 4 kurs kursantlari jamoasi tengsiz hisoblanib birinchi o‘rinni egalladilar.

Qiziqarli va ko‘tarinki ruhda bo‘lib o‘tgan musobaqalarning yakuniy natijalariga ko‘ra, Akademiya rahbariyati tomonidan musobaqada faol ishtirok etib, g‘olib va sovrindorlarlikni qo‘lga kiritgan bir guruh Akademiya harbiy xizmatchilari va kursantlari diplomlar, medallar, hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirladilar.

Jasur YARBEKOV,

**O'zbekiston Respublikasi
FVV Akademiyasi
"Harbiy va jismoniy tayyorgarlik"
kafedrasi o'qituvchisi,
katta leytenant.**